

O'ZBEKISTONDA YASHIL BANK XIZMATLARI KO'LAMINI KENGAYTIRISH YO'LLARI

M.Q. Maxmudova

Bank ishi kafedrasi dotsenti, DSc.

m.mahmudova0112@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-5777-6606>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17247887>

Barqaror rivojlanishga hissa qo'shish va uzoq yillardan buyon davom etayotgan iqlim muammosiga ijobiy yechimlarni berishga bank tizimi yaqin yillar ichida alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Atrof-muhit omillarini bank boshqaruvi va operatsiyalariga integratsiyalashni o'z ichiga olgan yashil bank ishi esa ko'plab tadqiqotlarga sabab bo'lib kelmoqda. Bank sektori odatda tabiatga zarar yetkazmaydigan sanoat sifatida qaraladi, lekin ular atrof-muhitni ifloslantiruvchi uglerod iziga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi. Ya'ni, banklar korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun kredit va moliyalashtirishning asosiy manbayi hisoblanadi. Shuning uchun ham banklar iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini yumshatishda va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadiga erishishga sezilarli hissa qo'shadigan loyihalarni ilgari surish orqali muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorij tajribasida yashil bank tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlar quyidagilar:

Yashil omonatlar (Green Deposits): mijozlar bank xizmatlaridan onlayn tarzda foydalanish orqali, banklar depozit hisobvaraqlari uchun yuqoriroq foiz stavkasini taklif qiladi.

Yashil ipoteka kreditlari (Green Mortgages): energiya tejamkor uylar uchun qulay foiz stavkalari yoki manfaatli shartlar bilan yashil ipoteka kreditlarini taklif qiladi. Bunday ipoteka energiya tejamkor uylarga ega bo'lgan yoki ularni ekologik texnologiyalar orqali yaxshilayotgan uy egalari uchun qulay shartlar taklif qiladi.

Yashil kredit (Green Loan): atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va ekologik jihatdan barqaror deb hisoblangan loyihalar yoki bizneslar uchun kreditlar ajratiladi.

Yashil kredit kartalari (Green Credit Cards): bu kartalar orqali mijozlar katta xaridlar qilganida, bank ushbu foydalanish asosida ekologik tashkilotlarga xayriya mablag'lari ajratadi. Bu kartalar mijozlarni yashil kartalardan foydalanishga undovchi yaxshi rag'batlantirish usulidir. Oddiy qilib aytganda, yashil kredit kartalari – bu barqaror va ekologik toza xaridlarni rag'batlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan moliyaviy mahsulotlardir. Ular foydalanuvchilarga atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish imkonini beradi.

Yashil mukofotli hisob (Green Reward Checking Account): agar mijozlar har oyda ma'lum talablarni bajarsalar (masalan: elektron hisob raqamini olish, onlayn to'lovlar amalga oshirish yoki debit kartadan foydalanish), ular yuqoriroq omonat foiz stavkasiga yoki keshbeklarga ega bo'lishlari mumkin. Yashil mukofotli hisob – bu bir vaqtning o'zida tabiatni asrash va foyda ko'rish imkonini beradigan bank mahsulotidir.

Mobil va onlayn bank xizmatlari (Mobile banking and online banking): mobil ilovalar va onlayn bank xizmatlari kamroq qog'oz ishlatish, mijozlarning filiallarga borishini kamaytirish orqali atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mobil va onlayn bank xizmatlari ekologiyani asrash bilan birga, banklar uchun ham iqtisodiy jihatdan samarali yechim hisoblanadi.


So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida ham yashil moliyalashtirish xizmatlarini amaliyotga keng joriy etish dolzarb bo'lib bormoqda. Jami 36ta: davlat ulushi mavjud va xususiy tijorat banklarining deyarli har biri yashil bank mahsulotlarini o'z xizmat turlariga qo'shib kelmoqda. Jumladan O'zsanoatqurilishbank yashil bank konsepsiyasini amalga oshirib kelayotgan ilk banklardan biri hisoblanadi. Ya'ni SQBning Green rivojlanish bosqichlari 2018-yilda Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) dan 16ta mutaxassisni jalb qilgan holda, bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari sosida ishlaydigan universal bankka aylana boshladi¹. ESG tomon qadamning eng aktiv payti 2023-yilda esa BMT bilan BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha shartnoma tuzildi. Avstriyaning yetakchi korporativ va investitsiya banklaridan biri va 11 ta Markaziy va Sharqiy Yevropa bozorida universal bank sifatida faoliyat yuritib kelayotgan Raiffeisenbank yordamida ishlab chiqilgan SQB Barqaror moliyalashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

"Yashil" moliyalashtirish sayyoramizning dolzarb ekologik muammolarini hal etishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar mahsuli ekanigini inobatga olgan holda muqobil energiya sohasida ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish alohida ahamiyatga ega. Shu bois mazkur mexanizm O'zsanoatqurilishbank tizimida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qabul qilingan. Bank yaqin kelajakda ushbu kreditlash usulini 70-80 foizgacha oshirishni rejalashtirmoqda.

Yashil bank strategiyasi doirasida (ya'ni bu strategiyaning asosiy maqsadi "O'zsanoatqurilishbank"ning ESG transformatsiyasi doirasidagi jamiyat va atrof-muhitni yaxshilash maqsadida ESG sohasida tizimli o'zgarishlarni amalga oshiruvchi yetakchi kompaniyaga aylanishdir va bunga xodimlar, mijozlar, investorlar, aksiyadorlar, sheriklar, davlatning hamkorligi shuningdek, innovatsion yechimlar va ijodiy yondashuv orqali erishiladi) Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va Fransiya taraqqiyot assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda yashil standartlar va metodologiyalarni joriy etish orqali "yashil" kreditlashga investitsiyalarni ko'paytirish bo'yicha yuqori maqsadlarga erishishni maqsad qilib kelmoqda. Xususan yashil kreditlar portfelini 2020-yildagi 47 million dollardan 2026-yilda 750 million dollarga oshirish rejalashtirilgan (1-rasm)²:

¹ <https://sqb.uz/uz/green-banking/>

² https://sqb.uz/upload/files2023/SQB_Green_bank_final.pdf



1-rasm. SQBning yashil kredit portfeilining o'sish strategiyasi

SQBning yashil bank uchun amalga oshirgan ekologiyalari ham alohida ahamiyat kasb etadi:

- Butunjahon tozalash kuni;
- SQB Green kampaniyasi - Salomatlik va sof tabiat uchun;
- Chiqindisiz kun;
- SQB yuguruvchilar;
- Yashil to'lov;
- Bank ekologik loyihalari
- Yashil iqtisodiyot haqida jamoatchilik xabardorligi
- Avtomobilsiz kun;
- Yashil mako;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha videoroliklar tanlovi;
- Yashil bog'lar.

Bank yashillik tamoyilini qo'llashda moliyaviy institutlar uchun iqlimni baholash (CAFI) deb nomlangan ilg'or IFC platformasidan foydalanadi. CAFI - bu yashil investitsiyalar natijasida oldini olingan issiqxona gazlari chiqindilarini baholash uchun standartlashtirilgan platforma. U asosiy (odatdagidek) chiqindilarni loyihadagilar bilan solishtirish orqali ishlaydi, ya'ni

Bartaraf etilgan CO₂ = Asosiy emissiya - Loyiha emissiyasi

CAFI vositasi iqlimga mos keladigan texnologiyalarning keng spektrini, jumladan qayta tiklanadigan energiya tizimlari (masalan, quyosh fotoelektrlari, shamol turbinalari), sanoat va tijorat operatsiyalarida energiya samaradorligini oshirish, yashil binolarni loyihalash va jihozlash, chiqindilarni boshqarish tadbirlari va kam emissiyali transport yechimlarini o'z ichiga oladi. U yillik oldini olingan issiqxona gazlari chiqindilarining batafsil hisob-kitoblarini taqdim etadi va natijalar moliya institutining umumiy investitsiyalardagi ulushiga mutanosib ravishda bog'lanishini ta'minlaydi³.

³ SQB_GGG_ Sustainability bond report

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025 yil 1 iyul holati ma'lumotlariga ko'ra, Xususiyl banklar orasida eng yirik xususiyl moliyaviyl tashkilot sifatidagi maqomini saqlab qolgan Ipoteka Bank OTP Group ham yashillik sari intilmoqda. Ayniqsa bankning ESG strategiyasiga muvofiq, turli xil yashil mahsulotlari va xizmatlari orqali o'z mijozlariga yashil va past uglerodli biznesga o'tishlariga yordam berib kelmoqda. Bank jarayonlariga raqamlashtirishni joriyl qilish va qog'ozsiz operatsiyalarni ta'minlash, shuningdek, mijozlarning ishonchli, tushunarli va oson kirish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olishlari uchun imkoniyat yaratilishi bankning asosiyl missiyasi hisoblanadi.

Bakning yashil mahsulotlari quyidagilar hisoblanadi:

- Jismoniy shaxslar uchun "avtokreditlar": Super BYD, BYD Boshqa elektromobillar uchun.
- Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun: elektromobil sotib olish uchun "avtokredit".
- Korporativ mijozlar uchun "Investitsion kredit":
 1. Zamonaviyl energiya tejamlkor texnologiyalar va uskunalarini sotib olish;
 2. Qayta tiklanadigan energiya, shu jumladan quyosh panellari va moslamalarni o'rnatish;
 3. Energiyaning samaradorligini oshirish loyihalarini amalga oshirish;
 4. Elektromobillar va boshqa ekologik toza transport vositalarini sotib olish;
 5. Atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga yordam beradigan texnologiyalarni rivojlantirish va boshqalar.

Ipotekabank mijozlarga operatsiyalarini raqamlashtirish va o'z faoliyatida kam qog'ozdan foydalanish orqali ekologiyaga salbiyl ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda xizmatlar ko'rsatib kelmoqda. Buning uchun bank "Ipoteka-Retail" mobil ilovasi ishga tushirdi va ilova yordamida filialga tashrif buyurmasdan turib quyidagi qulayliklarni taklif etib kelmoqda:

- To'lovlarni tezkor amalga oshirish;
- Elektron depozit ochish;
- Bank hisoblardagi qoldiqlarni ko'rish;
- Plastik kartalar orqali konversiyani amalga oshirish;
- Bir nechta kartalarni boshqarish;
- Kartadan kartaga pul o'tkazish;
- Uydan chiqmasdan xizmatlar uchun to'lash;
- Samarali mobil bankingdan foydalanish.

Bundan tashqari qog'oz sarfini kamaytirish va atrof-muhitni asrash dasturi doirasida bank bankomatlarining uchdan bir qismida yangi fon rasmlari va yangilangan ekranlari joriyl etildi. Endilikda amaliyotlarni bajarish jarayonida sizga iltifotli eslatma taqdim etiladi, ya'ni texnik jihatdan bosha bankomatlar singari chek chiqarish yoki chiqarmaslikni tanlash jarayoni b'ladi, lekin vizual ko'rinishi va foydalanuvchiga ta'sir qilish usuli ekologik ongni oshirishga yo'naltrilganligi bilan farq qiladi⁴.

Ipoteka bank va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) uzoq yillar davomida ishonchli hamkor bo'lib kelmoqda va O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirish bo'yicha birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. 2024-yilning 29-fevral kuni YeTTBning Toshkentdagi vakolatxonasi binosida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining Markaziy Osiyoda tadbirkor ayollar (Women in Business - WiB) dasturi

⁴ <https://www.ipotekabank.uz/news/>

va O'zbekistonda Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning ikkinchi dasturi (Green Economy Financing Facility II - GEFF II) doirasida "Ipoteka-bank" ATIB va YeTTB o'rtasida umumiy summasi 20 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit kelishuvlarini imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish (GEFF II) dasturi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligi texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali O'zbekistonda iqlimga chidamli, past uglerodli iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlaydi⁵.

O'zbekistonning yashil bank xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham quyidagi choralarni ko'rish yashil bank amaliyotini yanada samarali bo'lishiga ishonamiz:

1. 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasiga (02.12.2022 yildagi PQ-436-son qaror bilan tasdiqlangan) muvofiq "yashil" turdagi faoliyatni tasniflash uchun Milliy "yashil" taksonomiya ishlab chiqilgan⁶. "Yashil" loyihalar taksonomiyasi – barqaror rivojlanishga ko'maklashadigan va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni oshirishga, atrof-muhitga salbiy ta'sir darajasini pasaytirishga va energiya tejamkorligini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat turlari, loyihalar va aktivlarni tasniflash tizimi hisoblanadi. Jahon banki buning uchun model va yo'riqnoma ham berganligini inobatga olgan holda, banklar faqat taksonomiya(tasniflash)ga tayanmasdan, yashil bank xizmatlarini amaliy tizimga aylantirishi sohaga yanada izchillik beradi
2. Markaziy bankning "Yashil pul-kredit siyosatini amalga oshirish istiqbollari" bo'yicha konsepsiyasiga ko'ra, tijoat banklari yiliga kamida br marotaba yashil kreditlar ulushi va CO₂ kamayishi bo'yicha metrikalarni e'lon qilishi ham yashil bank xizmatlari ko'lamini kengaytirishga yordam beradi.
3. O'zbekistondagi birinchi Yashil moliyalashtirish fondi (GEFF I) energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya loyihalariga 60 million AQSh dollargacha bo'lgan kredit liniyasi bo'lib, u moliyalashtirishni sezilarli oshirdi. Endilikda esa GEFFII yuqori samarali texnologiyalar va amaliyotlardan foydalangan holda ularning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha yo'riqnoma va uy xo'jaliklariga energiya tejaydigan va qayta tiklanadigan energiya yechimlarini taklif qiluvchi turar-joy sektoridagi yashil iqtisodiyot tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni taklif qilib kelmoqda⁷. Shuning uchun ham GEFFII ni ko'proq tijorat bank va lizing kompaniyalariga joriy etish ahamiyatlidir.
4. 2024-yilning iyulida London fond birjasida 400 million AQSh dollari va 2.25 trillion so'mlik iqlim va yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan barqaror obligatsiyalari chiqarildi⁸ va bu emissiya muvaffaqiyatli amalga oshirilganini inobatga olgan holda, mahalliy valyutada ham "green bond" chiqarish tizimini keng joriy etish orqali yashil obligatsiyalar bozorini kengaytirgan bo'lamiz.
5. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tavsiyalariga asoslangan holda yashil kreditlarda risklarni kamaytirish uchun risk-sharing jamg'armalari tashkil etilishi yashil mahsulotlarning ishonchliligini oshiradi.

⁵ https://www.ipotekabank.uz/news/news_040324/

⁶ <https://www.norma.uz/>

⁷ https://ebrdgeff.com/uzbekistan_facilities/

⁸ <https://gggi.org/uzbekistans-sanoat-qurilish-bank>

6. Soliq va boshqa shu kabi imtiyozlarni tijorat banklari mahsulotlari bilan o'zaro integratsiya qilish ham mijozlarni yashil mahsulotlarga bo'lgan qiziqishi va ishonchini oshiradi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekistonda yashil bank ximatlarini kengaytirish mamlakatning ekologik barqaror rivojlanish strategiyasiga bevosita mos keladi. Tijorat banklari tomonidan "yashil kreditlar", "yashil depozitlar" va qog'o sarfini kamaytirish amaliyotlari yo'lga qo'yilishi esa yashil bank mahsulotlarining yorqin misolidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2023–2030-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishga oid PF-60-sonli Farmonining ilovasi, 116-band.
2. <https://Depozit.uz>
3. <https://bank.uz/uz/deposits>
4. Central Bank of Uzbekistan – Raqamli bank xizmatlari statistikasi, 2023-yil hisobotlari. <https://cbu.uz>
5. <https://pulbek.uz/deposits/>
6. <https://e-imzo.uz>